



FARG‘ONA VILOYATI FARG‘ONA TUMANI HOKIMINING QARORI

2026-yil 7-yanvar

2-11-163-Q/26

Farg‘ona tumani hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-oktabrdagi “Kasbiy ta’lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-190-son Farmoni asosida qabul qilingan viloyat hokimining 2025-yil 11-noyabrdagi 561-11-0-Q/25-sonli qarori to‘g‘risida

Yoshlarda amaliy ko‘nikmalar, zamonaviy kompetensiyalar va kasbiy madaniyatni shakllantirish, umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari o‘quvchilarini kasbga yo‘naltirish samaradorligini oshirish shuningdek, kasbiy ta’lim tizimi boshqaruvini isloh qilish orqali viloyatning inson kapitali borasidagi imkoniyatlarini to‘liq ishga solishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-oktabrdagi “Kasbiy ta’lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-190-son Farmoni asosida qabul qilingan viloyat hokimining 2025-yil 11-noyabrdagi 561-11-0-Q/25-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-oktabrdagi “Kasbiy ta’lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-190-son Farmoni asosida qabul qilingan viloyat hokimining 2025-yil 11-noyabrdagi 561-11-0-Q/25-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur Farmoni bilan:

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzurida kasbiy ta’lim tashkilotlari (keyingi o‘rinlarda - texnikumlar) faoliyatini muvofiqlashtirish va kasbiy ta’lim sohasini boshqarishga mas’ul Kasbiy ta’lim agentligi (keyingi o‘rinlarda - Agentlik) tashkil etilganligi inobatga olinsin.

3. Kasbiy ta’limni rivojlantirish hududiy tadbirkorlar kengashi 1-ilovaga muvofiq tashkil etilsin.

Bunda,

Kengash tarkibiga yirik tadbirkorlik subyektlari, ish beruvchi korxonalar, boshqarma va tashkilot rahbarlari kiritiladi.

Quyidagilar Kengashning asosiy vazifalari hisoblanadi:

(i) hududlarda o'rta bo'g'in kadrlariga bo'lgan ehtiyojni aniqlash, xalqaro ta'lim dasturlari, o'quvchilar amaliyoti hamda dual ta'limni tashkil etish;

(c) bitiruvchilar bandligini ta'minlash, texnikumlar ixtisoslashuvini o'zgartirish va ta'lim dasturlari mazmunini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

4. Quyidagilar:

Farg'ona tuman Kasbiy ta'lim bo'lim tizimiga o'tkazish orqali qayta tashkil etiladigan texnikumlar ro'yxati 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Malakani oshirish markazi tashkil etilguniga qadar Kasbiy ko'nikmalar markazi faoliyati davom ettiriladi hamda faoliyatini moliyalashtirishning amaldagi tizimi saqlab qolinadi.

5. Iqtisodiyot va moliya bo'lim (A.Yusupov):

2026-yildan boshlab har yili mahalliy budjet parametrlarini shakllantirishda Farg'ona tuman Kasbiy ta'lim bo'lim faoliyatini moliyalashtirish uchun zarur mablag'larni nazarda tutsin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Farg'ona tuman hokimining o'rinbosari I.Toshpo'latov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi v.v.b



Abduraximov O.N

Fargʻona tumani hokimining
2026-yil 7-yanvardagi
2-11-163-Q/26-son qaroriga
1-ilova

Kasbiy taʼlimni rivojlantirish hududiy tadbirkorlar Kengashi

TARKIBI

1.	X.Inomov	Fargʻona tumani hokimi - Kengash raisi
2.	O.Abdurahimov	Fargʻona tumani hokimining moliya, iqtisodiyot va kambagʻallikni qisqartirish masalalari boʻyicha birinchi oʻrinbosari - Kengash raisi oʻrinbosari
3.	I.Toshpoʻlatov	Fargʻona tumani hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va maʼnaviy-maʼrifiy ishlar boʻyicha oʻrinbosari - Kengash raisi oʻrinbosari
4.	X.Moʻminov	Fargʻona tumani Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik boʻlim boshligʻi
5.	O.Akbarov	Savdo-sanoat palatasi Fargʻona tumani boʻlimi boshligʻi
6.	Sh.Yuldashev	Fargʻona tumani Maktabgacha va maktab taʼlimi boʻlim boshligʻi
7.	M.Alijonov	Yoshlar ishlari agentligi Fargʻona tumani boʻlimi boshligʻi
8.	X.Toshboyev	Fargʻona tuman Tibbiyot birlashmasi
9.	U.Yuldashev	Inson ijtimoiy xizmatlar boʻlimi
10.	R.Xojiqurbonov	Tuman SEO va JS boʻlimi
11.	U.Toshbekov	Tuman Ekologiya boʻlimi

Izoh:

1. Kengash a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimlarga yangi tayinlangan shaxslar yoki zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklatilgan shaxslar kiritiladi.

2. Kengash qarori bilan uning tarkibiga o'zgartirish kiritilishi mumkin.

Fargʻona tumani hokimining
2026-yil 7-yanvardagi
2-11-163-Q/26-son qaroriga
2-ilova

**Kasbiy taʼlim boʻlim tizimiga oʻtkazish orqali qayta
tashkil etiladigan texnikumlar
ROʻYXATI**

T/ r	Tuman (shahar) nomi	Taʼlim tashkilotining amaldagi nomi	Yangi tashkil etilayotgan texnikumlar nomi	Quvvati
1.	Fargʻona tumani	Fargʻona tumani Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi	Fargʻona tumani Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi	795
2.	Fargʻona tumani	Fargʻona tumani 1-son politexnikumi	Fargʻona tumani 1-son texnikumi	600
3.	Fargʻona tumani	Fargʻona tumani 2-son politexnikumi	Fargʻona tumani 2-son texnikumi	615
4.	Fargʻona tumani	Fargʻona tumani xizmat koʻrsatish va servis texnikumi	Fargʻona tumani 3-son texnikumi	720

Izoh:

1. Texnikumlar va kasbiy koʻnikmalar markazlarini topshirish-qabul qilish ishlari yakunlanguniga qadar ularni moliyalashtirishning amaldagi tizimi saqlab qolinadi.

2. Obyektlarda boshlangan kapital va joriy taʼmirlash ishlari belgilangan moliyalashtirish manbalari hisobidan yakuniga qadar davom ettiriladi.

3. Kasbiy taʼlim boʻlim tizimiga oʻtkazilayotgan kasbiy koʻnikmalar markazlari va ularning filiallariga tegishli hudud, bino va inshootlar hamda barcha mol-mulki (ustaxona jihozlari, laboratoriya uskunalari, transport vositalari, axborot-kommunikatsiya vositalari, mebellar va boshqalar) yangi tashkil etilayotgan texnikumlar balansida saqlab qolinadi.